

Zaxira jamg'armalaridan mablag'lar ajratilgan tadbirlar muayyan muddatga ega bo'lsa, foydalanilmay qolgan mablag'lar tadbirlarni o'tkazish muddati tugaganidan keyin qancha vaqtda tegishli zaxira jamg'armasiga tiklanadi?

- O'n ish kuni ichida
- Bir hafta muddatda
- Besh ish kuni ichida
- Ikki hafta ichida

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan byudjet tashkilotiga ko'rsatilgan homiylik (beg'araz) yordamidan olingan mablag'lar qanday tadbirlarga sarflanadi?

Olingan mablag'larning barcha summasi, agar homiy bilan maxsus o'zgacha hol kelishilmagan bo'lsa, moddiy-texnika bazani mustahkamlashga sarflanadi

Olingan mablag'larning 75 foizi moddiy-texnika bazani mustahkamlashga va 25 foizi xodimlarni moddiy rag'batlantirishga sarflanadi;

Olingan mablag'larning barcha summasi xodimlarni moddiy rag'batlantirishga sarflanadi;

Olingan mablag'larning barcha summasi kapital qurilishga sarflanadi

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan byudjet tashkilotlarining moliyalashtirish manbai hisoblanmaydi:

Moliya bozorida ishtirok etishdan olinadigan, dividendlar

Vaqtincha foydalanilmaydigan binolarni va davlatning boshqa mulklarini ijaraga berish

Yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan byudjet tashkilotlariga beg'araz yordami

Faoliyat turi bo'yicha tovarlarni ishlab chiqarish va sotishdan daromadlar

Yuqori sinflarda dars beruvchi maktab o'qituvchisining haftalik o'quv yuklamasi qancha miqdorda o'rnatilgan?

- 20 soat
- 16 soat
- 18 soat
- 22 soat

Yuqori sinflarda dars beruvchi maktab o'qituvchisining haftalik o'quv yuklamasi 30 soat belgilangan bo'lsa, uning umumiy yuklamasi miqdori necha soatga teng bo'ladi?

- 54 soat
- 60 soat
- 16 soat
- 36 soat

Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratining natijalari rasmiylashtirilgan tekshirish va taftish natijalari bo'yicha tuziladigan hujjat:

- Dalolatnoma
- Jamlanma dalolatnoma
- Ma'lumotnoma
- Hisobot

Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish muddati:

- 30 kalendar kundan oshmasligi lozim
- 40 kalendar kundan oshmasligi lozim
- 45 kalendar kundan oshmasligi lozim
- 10 kalendar kundan oshmasligi lozim

Ro'yxatdan o'tkazish chog'ida xarajatlar smetasiga ilova qilinadigan hujjatlar:

To'rtinchi guruh xarajatlari yoyilmasi, davlat ehtiyojlari uchun ustuvor ravishda kichik tadbirkorlik subyektlaridan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) guruhlarining ro'yxati bo'yicha xarajatlar, yoyilmasi

Davlat ehtiyojlari uchun ustuvor ravishda kichik tadbirkorlik subyektlaridan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) guruhlarining ro'yxati bo'yicha xarajatlar yoyilmasi

Shtatlar jadvali, xarajatlarning moddalari bo'yicha to'rtinchi guruh xarajatlari yoyilmasi

Xarajatlarning moddalari bo'yicha to'rtinchi guruh xarajatlari yoyilmasi

Xalq ta'limi muassasalari bo'yicha xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali kim tomonidan tuziladi?

Xalq ta'limi muassasalarining yuqori tiruvchi tashkilotlari tomonidan;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tomonidan;

Xalq ta'limi muassasalari tomonidan mustaqil ravishda;

Xalq ta'limi muassasalari va hududiy moliya organlari tomonidan birgalikda

Umumta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirishning Direktor jamg'armasidan to'lanadigan o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlar va sinfdan tashqari ishlarni olib borishning yuksak darajasi uchun o'rnatilgan ustama miqdori:

Bazaviy tarif stavkasining 15 foizigacha;

Amaldagi eng kam ish hagina 50 foizi;

Amaldagi eng kam ish hagina 25 foizigacha;

Bazaviy tarif stavkasining 25 foizigacha

Umumta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirishning Direktor jamg'armasidan to'lanadigan kasbiy mahorati va ta'lim jarayoniga qo'shgan aniq hissa, yuqori samaradorlik va o'qitish sifati uchun ustama miqdori:

Bazaviy tarif stavkasining 25 foizigacha;

Amaldagi eng kam ish hagina 50 foizi;

Bazaviy tarif stavkasining 15 foizi;

Amaldagi eng kam ish hagina 25 foizi

Umumta'lim maktablarida bir o'quvchiga bazaviy xarajatlar me'yorlari asosida muassasa byudjetini aniqlash tartibi qachondan boshlab joriy qilindi?

2008-yildan boshlab tajriba tariqasida;

2009-yildan boshlab tajriba tariqasida;

2010-yildan boshlab;

2011-yildan boshlab

Umumta'lim maktablarida bir o'qituvchining yillik umumiy yuklamasi necha soat qilib belgilangan?

1548 soat

1648 soat

1550 soat

1540 soat

Umumta'lim maktablarida bir o'qituvchining oylik umumiy yuklamasi necha soat qilib belgilangan?

154,8 soat

144,0 soat

154,0 soat

164,8 soat

Umumta'lim maktablarida barcha sinflar uchun pedagogik stavkalar soni qaysi ko'rsatkichlar asosida aniqlanadi?

O'quv soatlari soni, o'qituvchining haftalik o'quv yuklamasi va sinflar soni asosida

O'quvchilar soni, sinf xonalari soni va o'qituvchining haftalik o'quv yuklamasi asosida;

Umumta'lim maktabi direktorining ko'rsatmalari asosida;

Sinflar soni, o'quvchilar soni va o'qituvchilar soni asosida

Umumta'lim maktablari rahbar xodimlarning ish haqi miqdorlari qaysi ko'rsatkichga bog'liq?

O'quvchilar kontingentiga (soniga) ko'ra maktab guruhiga;

Rahbar hodimning rahbarlik lavozimidagi ish staji va tajribasiga;

Rahbar xodimning malaka toifasiga;

Maktabdagi o'qituvchilar va boshqa xodimlar nisbatiga

Umumta'lim maktablari hodimlarini moddiy rahbatlantirish Direktor jamg'armasining manbai?

Byudjet mablag'lari;

Ta'lim muassasasining byudjetdan tashqari tushumlari;

Byudjet mablag'lari hisobidan iqtisod qilingan mablag'lar;

Ota-onalarning shu maqsaddagi rasmiy to'lovlari

Tumanlar va shaharlar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar bo'yicha byudjet so'rovlarini ko'rib chiqish kim tomonidan amalga oshiriladi?

Tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan

Tumanlar va shaharlar hokimliklari tomonidan;

Tegishli viloyat hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan;

Tegishli viloyat hokimliklari tomonidan

Tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish va ularni realizatsiya qilishni moliyalashtirish yoki birgalikda moliyalashtirish yoxud maqsadli xarajatlarning o'rnini qisman

qoplash uchun byudjet tizimi byudjetlari hisobidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan pul mablag'lari - ...

Subsidiya;

Subvensiya;

Dotatsiya;

Ssuda

Tibbiyot muassasasining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasining mablag'lari moddiy rag'batlantirishga va moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qanday nisbatlarda sarflanadi, agar u sog'liqni saqlash muassasalarining IV-guruhiga kirs?

50/50;

25/75;

35/65;

40/60

Tibbiyot muassasasining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasining mablag'lari moddiy rag'batlantirishga va moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qanday nisbatlarda sarflanadi, agar u sog'liqni saqlash muassasalarining III-guruhiga kirs?

40/60;

35/65;

25/75;

50/50

Tibbiyot muassasasining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasining mablag'lari moddiy rag'batlantirishga va moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qanday nisbatlarda sarflanadi, agar u sog'liqni saqlash muassasalarining II-guruhiga kirs?

35/65;

25/75;

40/60;

50/50

Tibbiyot muassasasining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasining mablag'lari moddiy rag'batlantirishga va moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qanday nisbatlarda sarflanadi, agar u sog'liqni saqlash muassasalarining I-guruhiga kirs?

25/75;

35/65;

40/60;

50/50

Sog'liqni saqlash tizimi muassasalari rahbar hodimlarining mehnatiga haq to'lashda asosiy ish haqi miqdori qanday ko'rsatkichlarga bog'liq?

Muassasa xizmat ko'rsatayotgan aholi kontingentiga;

Muassasadagi vrachlar, kichik va o'rta tibbiyot xodimlari soniga;

Kasalliklar turiga qarab muassasada davolanuvchi bemorlar kontingentiga;

Muassasa rahbarning malaka toifasiga

Sog'liqni saqlash muassasalarining rahbarlari, ularning o'rinbosarlari, bosh tibbiyot hamshiralari uchun mehnatga haq to'lash bo'yicha tarif setkasi bo'yicha razryad va tarif koeffitsiyentlari nimaga qarab tabaqalashtirilgan?

Sog'liqni saqlash muassasasining tipiga

Sog'liqni saqlash muassasasidagi koykalar (o'rinlar) soniga;

Sog'liqni saqlash muassasasidagi vrach lavozimlari soniga;

Sog'liqni saqlash muassasasidagi vrach qabullari soniga

Sog'liqni saqlash muassasalari (SSM) xodimlari ish haqlarini hisoblashda SSMning IV-guruhida qanday tuzatish koeffitsiyenti qo'llaniladi?

1,15

1,05

1,03

1

Sog'liqni saqlash muassasalari (SSM) xodimlari ish haqlarini hisoblashda SSMning III-guruhida qanday tuzatish koeffitsiyenti qo'llaniladi?

1,05

1,03

1

1,15

Sog'liqni saqlash muassasalari (SSM) xodimlari ish haqlarini hisoblashda SSMning II-guruhida qanday tuzatish koeffitsiyenti qo'llaniladi?

1,03

1,00

1,05

1,15

Sog'liqni saqlash muassasalari (SSM) xodimlari ish haqlarini hisoblashda SSMning I-guruhida qanday tuzatish koeffitsiyenti qo'llaniladi?

1,00

1,03

1,05

1,15

Sog'liqni saqlash muassasalari (SSM) xodimlari ish haqlarini hisoblashda qo'llaniladigan tuzatish koeffitsiyentlari qanday omilga bog'liq?

SSM ning guruhiga:

Xodimlarning malaka toifasiga;

Xodimning ish stajiga;

SSM dagi tibbiy faoliyatning murakkabligiga

Ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasi mavjud bo'lmagan taqdirda ...

Joriy moliya yilining 1 aprelidan boshlab byudjet tashkiloti xarajatlar smetasi ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar to'xtatib turiladi

Byudjet tashkiloti xarajatlar smetasi ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar to'xtatib turiladi;

Joriy yilning 1 aprelidan boshlab byudjet tashkiloti xarajatlarni to'lab berish to'xtatiladi;

O'tgan yilda tasdiqlangan smetaga ko'ra xarajatlar oyma-oy to'lab boriladi

Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan kelgusi davr uchun byudjet so'rovlari qanday muddatlarda va qaysi organga taqdim etiladi?

Moliya vazirligiga – joriy yilning 1 iyuligacha;

Moliya vazirligiga – joriy yilning 1 iyunigacha;

Moliya vazirligiga – joriy yilning 25 iyunigacha;

O'zi joylashgan tegishli hududiy moliya organlariga – joriy yilning 1 iyunigacha

Respublika bolalar va o'smirlar reproduktiv sog'lomlashtirish markazi Mehnatga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimi joriy etiladigan tibbiyot va farmasevtika xodimlarining mehnatiga haq to'lash bo'yicha davlat muassasalarining qaysi guruhiga kiradi?

I guruh-Ambulatoriya-poliklinika muassasalari, sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmati va boshqa muassasalar

II guruh-Umumiy profilli statsionar tibbiyot muassasalari va boshqalar;

III guruh-Ixtisoslashtirilgan statsionar muassasalar;

IV guruh-Shoshilinch va tez tibbiy yordam markazlari, tez yordam stantsiyalari

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarning tasdiqlangan xarajatlar smetalari va shtat jadvallari qaysi organ tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi?

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri byudjetining zahira jamg'armalariqanday maqsadlarda tuziladi?

Moliya yili mobaynida iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va boshqa sohalaridagi qo'shimcha, ko'zda tutilmagan xarajatlar o'z vaqtida hamda uzluksiz moliyalashtirilishini ta'minlash

Buyuk olimlar, mutafakkirlar, sarkardalar, davlat va jamoat arboblarning yubiley tadbirlarini o'tkazish;

Madaniy-ma'rifiy, sport tadbirlari, festivallar, umumdavlat va milliy bayramlarni o'tkazish;

Epidemiya qarshi kurashish, davlat dasturlarini mablag' bilan ta'minlash

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari taqchilligiga

Yo'l qo'yilmaydi:

Yo'l quyilishi mumkin;

Yo'l quyiladi, ular noinfatsion mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi;

O'rnatilgan me'yorlar darajasida yo'l quyiladi

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlari qachon va qaysi muddatlarda qabul qilinadi?

Davlat byudjeti parametrlari tasdiqlangandan keyin bir haftalik muddatda;

Davlat byudjeti qabul qilingunga qadar ikki haftalik muddat ichida;

Davlat byudjeti qabul qilinishi bilan uch kunlik muddatda;

Davlat byudjeti parametrlari tasdiqlangandan keyin ikki haftalik muddatda

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar taqchilligi qaysi manbalardan moliyalashtiriladi?

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi

O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan;

O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti tarkibi:

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti va respublikaga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlari

Qoraqalpog'iston Respublikasiga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlari;

Umumshahar byudjeti hamda shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjetlari;

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, umumtuman byudjeti hamda tuman

bo'ysunuvidagi shaharlar byudjetlari

Qaytarish sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalariga, rezident-yuridik shaxsga ajratiladigan pul mablag'lari?

Byudjet ssudasi:

Byudjet dotatsiyasi;

Byudjet subsidiyasi;

Byudjet subvensiyasi

Prognoz qilingan daromadlar va rejalashtirilgan xarajatlar o'rtasidagi rejali vaqtinchalik kassa uzilishini qoplash uchun byudjet ssudasi qanday muddatga beriladi?

To'qqiz oygacha bo'lgan muddatga;

Bir oygacha bo'lgan muddatga;

Uch oygacha bo'lgan muddatga;

Olti oygacha bo'lgan muddatga

Pedagog xodimlar (o'qituvchilar) bazaviy tarif stavkalari nimaga bog'liq ravishda taqaballashtirilgan?

Xodimning lavozimiga, malaka toifasiga, ta'lim muassasasining tipiga

Ta'lim muassasasining tipiga;

Xodimning ish stajiga va yoshiga;

Xodimning malaka toifasiga, dars beradigan sinflar soniga

Oltita vrach lavozimigacha shtatga ega bo'lgan sog'liqni saqlash muassasalarining tarkibiy bo'linmalarini boshqaruvchi vrach uchun bir oyda qancha miqdorda qo'shimcha haq tayinlanadi?

Eng kam ish haqining 50% miqdorida;

Eng kam ish haqining 70% miqdorida;

Eng kam ish haqining 45% miqdorida;

Eng kam ish haqining 60% miqdorida

Oltita vrach lavozimidan ortiq shtatga ega bo'lgan sog'liqni saqlash muassasalarining tarkibiy bo'linmalarini boshqaruvchi vrach uchun bir oyda qancha miqdorda qo'shimcha haq tayinlanadi?

Eng kam ish haqining 70% miqdorida;

Eng kam ish haqining 50% miqdorida;

Eng kam ish haqining 45% miqdorida;

Eng kam ish haqining 60% miqdorida

Davlat oliy ta'lim muassasalari qaysi byudjet bo'g'inidan mablag' bilan ta'minlanadi?

Respublika byudjetidan

Tegishli mahalliy byudjetlardan;

Respublika byudjetidan hamda tegishli mahalliy byudjetlardan;

Oliy ta'lim muassasalari o'zini o'zi moliyalashtirish asosida mablag' bilan ta'minlanadi

O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi mablag'larni jalb qilish natijasida vujudga kelgan majburiyatlari nima deb ataladi?

Davlat qarzi;

Davlat krediti;

Davlatning bankrotligi;

Davlatning moliyaviy majburiyati

O'zbekiston Respublikasining beg'araz yordam ko'rsatishi to'g'risidagi qaror qaysi organ tomonidan qabul qilinadi?

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasitomonidan;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Palatalari tomonidan;

Insonparvarlik yordami bo'yicha hududiy va tarmoq komissiyalari tomonidan

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg'armasidan ajratilib, moliya yili davomida foydalanilmay qolgan byudjetdan ajratilgan mablag'lar nima qilinadi?

Moliya yili tugagach tegishli byudjetga tiklanadi;

Ularning ishlatilishi keyingi moliya yiliga o'tkaziladi;

Respublika byudjetiga o'n ish kuni ichida qaytariladi;

Tegishli byudjetga o'n ish kuni ichida qaytariladi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga xulosa taqdim etish uchun Byudjetnoma qanday muddatlarda kiritiladi?

Joriy yilning 20 sentyabriga qadar;

Joriy yilning 15 sentyabriga qadar;

Joriy yilning 15 oktyabriga qadar;

Joriy yilning 1 iyuliga qadar

O'zbekiston Respublikasi nomidan beg'araz yordam ko'rsatgan vakolatli organ qanday muddatda va qaysi vakolatli organga moliyaviy hisobotlar taqdim etadi?

Hisobot yilidan keyingi yilning 1 martigacha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga;

Hisobot yilining oxirigacha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga;

Hisobot yilidan keyingi yilning 1 martigacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga;

Hisobot yilidan keyingi yilning 1 martigacha O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasiga

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni qaysi moliya organlariga taqdim etadi?

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar moliya organlariga

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar moliya organlariga;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar moliya organlariga;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar moliya organlariga

O'zbekiston Respublikasi Jamlanma byudjeti tarkibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi

Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari;

Respublika byudjeti, viloyatlar byudjetlari, Toshkent shahar byudjeti;

Respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga belgilanadigan cheklovlar tarkibiga kirmaydi:

Yuqori turuvchi byudjetlardan byudjet ssudalari olish;

Mablag'lar jalb qilishni amalga oshirish;

Tasdiqlangan byudjetdan ajratilgan mablag'lardan ortiq xarajatlarni amalga oshirish;

Tegishli byudjetlar mablag'lari hisobidan boshqa yuridik va jismoniy shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va kafilliklar berish

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksida ... aks ettirilmagan

Muayyan moliya yili uchun davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari parametrlari

Byudjet tizimi byudjetlari tuzilmasi;

Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari tarkibi;
Respublika va mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari tarkibi

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi qachon qabul qilingan?

2013-yil 26-dekabrda;

2000-yil 14-dekabrda;

2002-yil 12-dekabrda;

2014-yil 2-yanvarda

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi necha bo‘lim, bob va moddadan iborat?

9 bo‘lim, 28 bob, 192 modda;

10 bo‘lim, 38 bob, 182 modda;

11 bo‘lim, 128 bob, 292 modda;

7 bo‘lim, 18 bob, 92 modda

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi yangi tahriri qachon qabul qilingan?

2007-yil, dekabr;

1999-yil, sentabr;

1997-yil, aprel;

1992-yil, sentabr

O‘z tasarrufida O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan mablag‘ oladigan tashkilotlarga ega bo‘lgan yuridik shaxs, shuningdek respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag‘lari oluvchi – bu ...

Byudjet mablag‘larini taqsimlovchi;

Byudjet kreditarini taqsimlovchi;

Byudjet mablag‘larini tasarruf etuvchi;

Byudjet mablag‘larining so‘nggi iste‘molchisi

O‘tgan yil uchun byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi amalga oshiriladigan moliya yiliga qo‘shimcha vaqt davri:

Keyingi yilning 15 yanvarigacha bo‘lgan davr

Keyingi yilning yanvar-fevral oylari;

Keyingi yilning yanvar oyi;

Keyingi yilning 15 fevraligacha bo‘lgan davr

Muayyan yil uchun barcha darajadagi mahalliy byudjetlarning daromad va xarajatlari miqdorlari, ularga dotatsiya va subvensiyalar miqdorlari qanday hujjat bilan tasdiqlanadi?

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining har moliyaviy yil uchun qabul qilinadigan “Makroiqtisodiy ko‘rsatlichlar prognozi va byudjet parametrlari to‘g‘risida”gi Qarori

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi;

O‘zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha Yo‘riqnoma;

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi

Muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari – bu ...

Byudjet subvensiyasi;

Byudjet subsidiyasi;

Byudjet ssudasi;

Byudjet dotatsiyasi

Moliya yilida O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori - ...

Aylanma kassa mablag‘i;

Aylanma kassa me‘yori;

Aylanma g‘azna mablag‘i;

Mablag‘lar hajmining maksimal miqdori

Moliya Vazirligi tomonidan tayyorlangan davlat byudjeti loyihasi qaysi muddatda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etiladi?

Joriy yilning 15 sentabrigacha;

Joriy yilning 1 sentabrigacha;

Joriy yilning 15 dekabrigacha;

Joriy yilning 1 oktyabrigacha

Mamlakatda mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni, ichki tartibni saqlash bilan bog'liq xarajatlar qanday tartibda amalga oshiriladi?

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tomonidan belgilanadigan tartibda;

Mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni, ichki tartibni saqlash uchun javobgar bo'lgan vazirliklar tomonidan belgilanadigan tartibda

Maktabgacha ta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirishda qanday operativ-tarmoq ko'rsatkichlari asos qilib olinadi?

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi tarbiyalanuvchilarning o'rtacha yillik soni, guruhlar soni, xarajat me'yorlari

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi xonalar kubaturasi, xodimlar soni;

Maktabgacha ta'lim muassasalarining ish tartibi, bolalar soni;

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi guruhlar soni, tarbiyachilar soni

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilash qaysi organning vakolatiga kiradi?

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining;

Hududiy moliya organlarining

Mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan kelgusi davr uchun byudjet so'rovlari qanday muddatlarda va qaysi organga taqdim etiladi?

Tegishli moliya organlariga – joriy yilning 1 iyunigacha;

Tumanlar moliya bo'limlariga - joriy yilning 25 iyunigacha;

Shaharlar moliya boshqarmalariga - joriy yilning 1 iyuligacha;

Moliya vazirligiga - joriy yilning 1 iyunigacha

Mablag'larni bir shaxsiy g'azna hisobvarag'idan boshqa shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkazish uchun foydalaniladigan to'lov hujjati –

G'aznachilik memorial orderi

To'lov topshiriqnomasi;

Hisobvara-q-faktura;

To'lovlar jadvali

Kelgusi moliya yilining birinchi choragi uchun byudjet tashkilotlarining vaqtinchalik xarajatlar smetalari qaysi muddatlarda tuziladi, tasdiqlanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi?

Joriy moliya yilining 25 dekabrigacha

Joriy moliya yilining 30 dekabrigacha;

Kelgusi yilning 10 martigacha;

Kelgusi yilning 1 aprelogacha

Kelgusi moliya yili uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining loyihalari kimga, kim tomonidan belgilangan qanday muddatlarda taqdim etiladi?

Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq joriy yilning 25 iyunidan kechiktirmay

Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga Vazirlar mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq joriy yilning 1 iyulidan kechiktirmay;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga Vazirlar mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq joriy yilning 25 iyunidan kechiktirmay;

Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq joriy yilning 25 iyulidan kechiktirmay

Kelgusi moliya yili uchun davlat byudjeti loyihasini qaysi organ tayyorlaydi?

Moliya Vazirligi;

Oliy Majlis;

Vazirlar Mahkamasi;

Tegishli hokimiyatlarning moliya boshqarmalari va bo'limlari

Kelgusi davr uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'larni olishga bo'lgan ehtiyojni asoslashni nazarda tutuvchi hujjat?

Byudjet so'rovi;

Byudjet buyurtmasi;

Byudjetnoma;

Byudjet parametrlari

Kam ta'minlangan oilalar uchun nafaqalar qanday miqdorlarda o'rnatilgan?

Eng kam oylik ish haqining 150-300%;

Eng kam oylik ish haqining 200-300%;

Eng kam oylik ish haqining 50-150%;

Eng kam oylik ish haqining 100-150%

Javoblarning qaysi biri "smeta-shtat intizomini buzish"ga kiradi?

Tarifikatsiya ro'yxatlarini tuzishning belgilangan tartibi va normativlariga rioya etmaslik

Mehnatga haq to'lash bo'yicha belgilangan razryadlarga, lavozim maoshlari, ustamalar, ish haqiga qo'shimchalar va boshqa to'lovlar miqdorlariga rioya etmaslik;

Davlat byudjeti mablag'larini ularni olish (ulardan foydalanish) shartlariga muvofiq bo'lmagan maqsadlarga yo'naltirish;

Byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalar va tashkilotlarga ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa xarajatlarni to'lash uchun pul mablag'lari berilishini, banklarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari tomonidan asossiz kechiktirish

Javoblarning qaysi biri "byudjet intizomini buzish"ga kiradi?

Davlat byudjeti mablag'larini ularni olish (ulardan foydalanish) shartlariga muvofiq bo'lmagan maqsadlarga yo'naltirish:

Noto'g'ri ma'lumotlar asosida va normativlarga nisbatan oshirib ko'rsatilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'larni xarajatlar smetasiga kiritish;

Xodimlarning belgilab qo'yilgan cheklangan umumiy soniga, xodimlarning toifalari o'rtasidagi o'zaro nisbat normativlariga, namunaviy shtat normativlariga rioya etmaslik;

Tarifikatsiya ro'yxatlarini tuzishning belgilangan tartibi va normativlariga rioya etmaslik

Fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organlarida bolali oilalarga nafaqalar va oilalarga moddiy yordamlar tayinalsh bo'yicha vedomostlarni shakllantirishning oxirgi muddati

Ariza bilan murojaat qilingan oydan keyingi oyning 5 sanasigacha;

Ariza bilan murojaat qilingan oydan keyingi oyning 25 sanasigacha;

Ariza bilan murojaat qilingan oyning 25 sanasigacha;

Ariza bilan murojaat qilingan oyning oxirgi sanasigacha

Doimiy xodimlar va bo'sh o'rinlar lavozimlarining nomlanishini, ularning soni va lavozim maoshlarining miqdorlari ko'rsatilgan holdagi ro'yxatini o'z ichiga oladigan, byudjet tashkiloti tomonidan tuziladigan hujjat:

Shtatlar jadvali:

Tarifikatsiya ro'yxati;

Xarajatlar smetasi;

Tabel

Davlat sog'liqni saqlash muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishning asosiy manbai qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

Respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar:

Muassasaning tijorat foydasi;

Davlat majburiy tibbiy sug'urta jamg'armasi;

Ixtisoslashgan tibbiy sug'urta tashkilotlari mablag'lari

Davlat byudjeti bo'yicha byudjet so'rovini tuzish tartibi qaysi organ tomonidan belgilanadi?

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan:

Tegishli hududiy moliya organlari tomonidan;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan;

Tegishli hokimiyatlar tomonidan

Davlat byudjetining sog'liqni saqlash xarajatlari jami byudjet xarajatlarining o'rtacha qancha foizini tashkil qiladi?

13-14 foiz;

5-10 foiz;

20-22 foiz;

18-20 foiz

Davlat byudjetining markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari qanday maqsadlarga ishlatiladi?

Davlat investitsion dasturini mablag' bilan ta'minlashga, kapital qurilishga

Iqtisodiyotning ustuvor sohalarini moliyalashtirishga;

Kapital qurilishni moliyalashtirishga;

Xarajatlarni III-guruh xarajatlarini moliyalashtirishga

Davlat byudjetining iqtisodiyot xarajatlari tarkibiga quyidagilarning qaysisi kirmaydi?

Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari:

Suv, qishloq, o'rmon xo'jaligi xarajatlari;

Atrof muhit va landshaftning muhofaza qilinishini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarni;

Biologik xilma-xillikning himoya qilinishini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarni

Davlat byudjeti qaysi organ tomonidan qabul qilinadi?

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan;

O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasiga tomonidan;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan

Davlat byudjeti xarajatlari mamlakat YalMning oxirgi uch yil mobaynida o'rtacha qancha foizini tashkil qilgan?

22-24 foizini;

28-30 foizini;

30 foizini;

15-16 foizini

Davlat byudjeti loyihasini tuzish uchun mas'ul organlar:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi; vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari – byudjetlar loyihalarini tuzish, Moliya vazirligi tomonidan so'ralgan axborot va ma'lumotlarni taqdim etishga taalluqli qismi bo'yicha

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari;

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari – byudjetlar loyihalarini tuzish, Moliya vazirligi tomonidan so'ralgan axborot va ma'lumotlarni taqdim etishga taalluqli qismi bo'yicha

Davlat boshqaruvi organlarining davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini ijro etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib borish va nazorat qilish qaysi organning byudjet sohasidagi vakolatiga kiradi?

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Palatalarining;

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining

Davlat arxivlarini saqlab turish xarajatlari qanday xarajat guruhiga kiradi?

Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari:

Iqtisodiyot xarajatlari;

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlab turish xarajatlari;

Sudlarni, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari

Daromadlar tushumlari va xarajatlarni amalga oshirish o'rtasida kutilayotgan vaqtinchalik kassa uzilishlarini qoplash uchun byudjet ssudasi qanday muddatga beriladi?

Olti oygacha bo'lgan muddatga;

To'qqiz oygacha bo'lgan muddatga;

Bir oygacha bo'lgan muddatga;

Uch oygacha bo'lgan muddatga

Byudjet tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turlari va tadbirlarning byudjet tizimi byudjetlarining mablag'lari hisobidan uni moliyalashtirish uchun asos bo'lgan tegishli qonun hujjati ko'rsatilgan ro'yxati:

Xarajat majburiyatlarining reestri:

Xarajatlarni smetasi;

Byudjet buyurtmasi;

Tahliliy hisobot

Byudjetdan amalga oshiriladigan ijtimoiy ta'minot xarajatlari tarkibiga qaysi biri kirmaydi?

Nogironlik pensiyalarini berish;

Yolg'iz fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish;

Nogironlar uy-internatlarini saqlash;

Nogironlarga bepul ortopediya-protez vositalarini berish

Byudjetdan aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari tarkibiga qaysi xarajatlar kiradi?

2 yoshgacha bolali onalarga nafaqa;

Nogironlarga pensiya to'lovlari;

Vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotganlikda beriladigan nafaqa;

Sanatoriya-kurort xizmatlarini moliyalashtirish

Byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida moliyaviy nazorat obyektlarining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarini o'rganish hamda taqqoslash nima deb ataladi?

Davlat moliyaviy nazorati:

Byudjet nazorati;

Nazorat va taftish;

Ichki va tashqi audit

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi ...

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan g'azna ijrosi yo'li bilan amalga oshiriladi

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tomonidan g'azna ijrosi yo'li bilan amalga oshiriladi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan kassa ijrosi yo'li bilan amalga oshiriladi;

Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan smetalar orqali amalga oshiriladi

Byudjet tizimi byudjetlarining iqtisodiy belgilar bo'yicha xarajatlarning II-guruhi qanday nomlanadi?

Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar:

Ish haqiga ustamalar;

Ish beruvchilarning ajratmalari;

Ish haqiga tenglashtirilgan to'lovlar

Byudjet tizimi byudjetlariga ularning o'z daromadlari yetishmagan taqdirda daromadlar bilan xarajatlar o'rtasidagi farqni qoplash uchun qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari – bu ...

Byudjet dotatsiyasi:

Byudjet transferti;

Byudjet subsidiyasi;

Byudjet subventsiyasi

Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlar qismining ijrosi nimani nazarda tutadi?

Yuridik va moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olishni, kassa xarajatlarni amalga oshirishni, hisob va hisobotni

Yuridik va moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish va ro'yxatdan o'tkazishni;

Kassa xarajatlarni amalga oshirishni, hisob va hisobotni;

Tushumlarni Yagona g'azna hisobvarag'iga va boshqa bank hisobvaraqlariga kiritishni

Byudjet tizimi byudjetlari o'rtasidagi tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari qaysi organ tomonidan belgilanadi?

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki u vakolat bergan organ tomonidan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan

Byudjet tizimi byudjetlari o'rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek soliq bo'lmagan to'lovlar ...?

Tartibga soluvchi daromadlar:

O'tkazib beriladigan daromadlar;

Biriktirilgan daromadlar;

O'zaro hisob-kitoblar

Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tushishini ta'minlash va xarajatlarni amalga oshirishni, shuningdek ularning ijrosi bilan bog'liq operatsiyalarni hisobga olish jarayoni ...

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi yuzasidan hisobot to'plash;

Byudjetni rejalashtirish;

Byudjet tizimi byudjetlari ijrosining hisobini yuritish

Byudjet tizimi byudjetlari daromad qismining ijrosi nimani nazarda tutadi?

Tushumlarni Yagona g'azna hisobvarag'iga va boshqa bank hisobvaraqlariga kiritishni; tushumlarni byudjet tizimining byudjetlari o'rtasida taqsimlashni; ortiqcha yoki noto'g'ri to'langan tushum summalarini qaytarishni yoxud ularni qarzni to'lash evaziga hisobga olishni; hisob va hisobotni;

Ortiqcha yoki noto'g'ri to'langan tushum summalarini qaytarishni yoxud ularni qarzni to'lash evaziga hisobga olishni; hisob va hisobotni;

Tushumlarni Yagona g'azna hisobvarag'iga va boshqa bank hisobvaraqlariga kiritishni; tushumlarni byudjet tizimining byudjetlari o'rtasida taqsimlashni;

Yuridik va moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olishni; kassa xarajatlarini amalga oshirishni, hisob va hisobotni

Byudjet tashkilotlarining tasdiqlangan xarajatlar smetasini ro'yxatdan o'tkazish muddati:

Joriy moliya yilining 10 martidan kechiktirmay;

Tegishli byudjet parametrlari tasdiqlangan paytdan boshlab 40 kun muddatdan kechiktirmay;

Tegishli byudjet parametrlari tasdiqlangan paytdan boshlab 30 kun muddatdan kechiktirmay;

Joriy moliya yilining 1 aprelidan kechiktirmay

Byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari qanday stavkalarda soliqqa tortiladi?

Soliq to'lashdan ozod etilgan:

Umumbelgilangan tartibda;

Soddalashtirilgan tartibda;

Soliq Kodeksida belgilangan imtiyozli tartibda

Byudjet tashkilotlarining Rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari qanday maqsadlarga sarflanmaydi?

14 yoshgacha bolali oilalarga nafaqalar to'lash;

Vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotganlik bo'yicha nafaqalarni to'lash;

Mavjud kreditorlik qarzlarini to'lash;

Byudjet tashkilotining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash

Byudjet tashkilotlarining boshqa xarajatlarini moliyalashtirish(to'lash) qachon amalga oshiriladi?

Byudjetga mablag' tushishiga qarab har oyda;

Byudjetga mablag' tushishiga qarab yilning boshida;

Byudjetga mablag' tushishiga qarab har chorakda;

Byudjetga mablag' tushishiga qarab har 7 kunda

Byudjet tashkilotlarining IV-guruh - "Boshqa xarajatlar" tarkibidagi xarajatlar belgilangan limitlar dorasida qanday ketma-ketlik asosida moliyalashtiriladi?

Oziq-ovqat va dori-darmon, kommunal xizmat, yonilg'i va yoqilg'i-moylash materiallari, oshqa xarajatlar

Kommunal xizmat, oziq-ovqat, dori-darmon, boshqa xarajatlar;

Kommunal xizmat, dori-darmon, oziq-ovqat, boshqa xarajatlar;

Dori-darmon, kommunal xizmat, oziq-ovqat, boshqa xarajatlar

Byudjet tashkilotlarining IV-guruh "Boshqa xarajatlar" hisobiga uyali telefonlar, import ofis mebellarini sotib olish qaysi moliya organi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi?

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

Viloyat Moliya boshqarmasi, tuman (shahar) moliya bo'limlari;

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning hududiy organlari;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi

Byudjet tashkilotlarining ishlab chiqilgan va ro'yxatdan o'tkazish uchun kiritiladigan smetalari va shtatlar jadvalining to'g'riligi va asoslanganligi uchun kim javobgar?

Byudjet tashkilotining rahbari, byudjet tashkilotining bosh hisobchisi:

Hokimliklarning moliya bo'limlari rahbarlari;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimidagi vakolatli xodimlar;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tizimidagi vakolatli xodimlar

Markazlashtirilgan tadbirlar uchun smeta – bu...?

Vazirliklar, idoralar va hokimiyatlar boshqarmalari va bo'limlari tomonidan markazlashtirilgan holda amalga oshiriladigan xarajatlar bo'yicha tuziladigan smeta

Respublika ahamiyatidagi bayramlar, ommaviy tadbirlar bo'yicha tuziladigan smeta;

Byudjet tashkilotining (yoki byudjet mablag'lari oluvchining) asosiy xarajatlar smetasi tasdiqlanganiga va ro'yxatdan o'tkazilganiga qadar amal qiladigan hujjat;
Vazirliklar, idoralar va hokimiyatlar boshqarmalari va bo'limlarini saqlash bilan bog'liq xarajatlar bo'yicha tuziladigan smeta

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi hujjat qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro'yxatga olingan Nizom;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabr 1024-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabr 275-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentabr 414-son qarori

Byudjet tashkilotlariga yuridik shaxs maqomi qanday sharoitlar bo'lganda berilishi mumkin?

Moddiy texnik bazasi va sohasi bo'yicha xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanish uchun sharoitlarning mavjudligi

Kontingenti yoki shtat birligi 100 kishidan kam bo'lmagan byudjet tashkilotlariga;

Moliya bo'yicha kadrlarning mavjudligi;

Kontingenti yoki shtat birligi 200 kishidan kam bo'lmagan byudjet tashkilotlariga

Byudjet tashkilotlariga o'tgan yildagi debitorlik qarzlarning qaytarilgan summasi ...

Tegishli byudjetlar daromadiga tiklanadi:

Byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armasiga o'tkaziladi;

Byudjet tashkilotlarining "boshqa xarajatlar" guruhidagi xarajatlarga yo'naltiriladi;

Byudjet tashkilotlari xodimlariga moddiy yordam va mukofot uchun yo'naltiriladi

Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi qaysi davrga tuziladi?

Bir kalendar yilga;

Yar yarim yilga;

Har oyga alohida;

Bir yilning har choragiga

Byudjet tashkilotlari tasdiqlangan smeta va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish uchun qaysi moliya organiga taqdim etadilar?

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga va hududiy moliya organlariga;

O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligi va Markaziy bankga;

O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligiga;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining hududiy moliya organlariga

Byudjet tashkilotlari Rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha qanday smeta tuzadilar?

Daromad va xarajatlar smetasi;

Xarajatlar smetasi;

Markazlashgan tadbirlar uchun smeta;

Smeta tuzmaydilar

Byudjet tashkilotining Rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari birinchi navbatda nimaga sarflanadi?

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha to'lanmagan nafaqalar va muddati o'tgan kreditorlik qarzlarni to'lashga

Byudjet tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirishga;

Byudjet tashkilotlari moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga;

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha to'lanmagan nafaqalarni to'lashga

Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etishdan asosiy maqsadlardan biri?

Muassasaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, xodimlarni moddiy rag'batlantirish

Xodimlarni sportga bo'lgan ishtiyoqini oshirish va umumlashgan holda sport jihozlarini sotib olish;

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga ko'maklashish;

Byudjet tashkilotida ishlovchilarning ish haqlarini oshirish

Byudjet tashkiloti deganda qanday tashkilot tushuniladi?

Davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan, davlat byudjeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilotlar;

Byudjetdan mablag' oluvchi mulk shaklidan qat'iy nazar barcha muassasa va tashkilotlar;

Davlatning siyosatiga mos ish olib boruvchi nodavlat notijorat tashkilotlari;

Davlat byudjetidan va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlaridan mablag'lar oladigan yuridik yoki jismoniy shaxslar

Byudjet subvensiyasi deganda nima tushuniladi?

Muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari:

O'z daromadlari va byudjetning tartibga soluvchi boshqa mablag'lar yetishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari;

Yuqori byudjetdan quyi byudjetga yoxud respublika byudjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag';

Tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish va ularni realizatsiya qilishni moliyalashtirish yoki birgalikda moliyalashtirish yoxud maqsadli xarajatlarning o'rnini qisman qoplash uchun byudjet tizimi byudjetlari hisobidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan pul mablag'lari

Byudjet ssudalarini berishning majburiy sharti:

Ulardan belgilangan maqsadda foydalanish, joriy moliya yili mobaynida ularni o'z vaqtida qoplash:

Ulardan belgilangan maqsadda foydalanish va foizi bilan qaytarish;

Joriy moliya yili mobaynida ularni o'z vaqtida foizi bilan qoplash;

Joriy moliya yilidan keyingi chorak yakunigacha ularni qaytarish

Byudjet so'rovi nima?

Kelgusi davr uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'larni olishga bo'lgan ehtiyojni asoslashni nazarda tutuvchi hujjat:

Byudjetning daromad va xarajatlar ijrosi yuzasidan hisobotlar bo'yicha talabnoma;

Yuzaga kelgan taqchillikni qoplash maqsadida quyi budetning yuqori byudjetdan mablag' ajratish to'g'risidagi so'rovi;

==== Mahalliy hokimiyat organining yillik yig'ma smetasi

Byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan uning tasarrufidagi byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalari asosida tuziladigan xarajatlar smetasi qanday nomlanadi?

Jamlanma xarajatlar smetasi:

Yig'ma xarajatlar smetasi;

Daromad va xarajatlar smetasi;

Markazlashgan tadbirlar uchun xarajatlar smetasi

Byudjet Kodeksiga ko'ra, saylovlar va referendumlar o'tkazish bo'yicha xarajatlar qaysi xarajatlar guruhiga kiradi?

Boshqa xarajatlar:

Sudlarni, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari;

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlab turish xarajatlari;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasini shakllantirish xarajatlari

Byudjet Kodeksiga ko'ra, davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish va O'zbekiston Respublikasining kafolatlangan majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq xarajatlar qaysi xarajatlar guruhiga kiradi?

Boshqa xarajatlar:

Sudlarni, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari;

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlab turish xarajatlari;

Respublika vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari buyurtmachi bo'lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari

Byudjet Kodeksiga ko'ra, davlat moliyaviy nazorat organlari qaysilar?

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi;

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning tasarrufidagi vakolatli organlar;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Gaznachiligi va uning hududiy bo'linmalari

Byudjet Kodeksiga ko'ra, byudjetdan mablag' oluvchilar kimlar?

Davlat byudjetidan va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlaridan mablag'lar oladigan yuridik yoki jismoniy shaxslar:

Davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan, davlat byudjeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilotlar;

Byudjetdan mablag' oluvchi mulk shaklidan qat'iy nazar barcha muassasa va tashkilotlar;

Davlatning siyosatiga mos ish olib boruvchi nodavlat notijorat tashkilotlari

Byudjet jarayonining bosqichlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni ko'rsating.

Byudjetni tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash, ijro etish, hisobot to'plash va tasdiqlash, nazorat qilish;

Byudjet prognozlarni belgilash, ijro etish, nazorat qilish;

Byudjetni ijro etish, tahlil qilish, monitoringini olib borish, qaror qabul qilish;

Ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish, xulosa qilish, axborot uzatish

Byudjet jarayoni ishtirokchilari:

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar;

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari;

Davlat moliyaviy nazorat organlari, byudjet tashkilotlari;

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar

Byudjet buyurtmasi kim tomonidan tuziladi?

Byudjet tashkiloti, byudjet mablag'lari oluvchi va byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;

Tegishli hududiy moliya organlari tomonidan;

Byudjet tashkiloti va byudjet mablag'lari oluvchi tomonidan

Boshlang'ich sinflarda dars beruvchi maktab o'qituvchisining haftalik o'quv yuklamasi qancha miqdorda o'rnatilgan?

18 soat;

22 soat;

20 soat;

36 soat

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining 1,0 stavkasi uchun haftalik umumiy yuklamasi necha soatni tashkil etadi?

36 soatni;

18 soatni;

20 soatni;

30 soatni

Bolalar kasalxonalari va poliklinikalari Mehnatga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimi joriy etiladigan tibbiyot va farmasevtika xodimlarining mehnatiga haq to'lash bo'yicha davlat muassasalarining qaysi guruhiga kiradi?

III guruh-Ixtisoslashtirilgan statsionar muassasalar;

IV guruh-Shoshilinch va tez tibbiy yordam markazlari, tez yordam stansiyalari;

II guruh-Umumiy profilli statsionar tibbiyot muassasalari va boshqalar;

I guruh-Ambulatoriya-poliklinika muassasalari, sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmati va boshqa muassasalar

Birlamchi tibbiyot muassasalari byudjeti qanday ko'rsatkichlar asosida rejalashtiriladi?

Biriktirilgan aholi soni, xarajatlarning bazaviy me'yorlari, tuzatuvchi koeffitsiyentlar;

Vrach qabillari soni, tibbiy xodimlar lavozimlari soni;

Muassasaning quvvati, aholi soni;

Muassasadagi o'rinlarning o'rtacha yillik soni, bazaviy me'yorlar

Agar turli darajadagi byudjetlarning zaxira jamg'armalaridan mablag'lar ajratilgan tadbirlar muayyan muddatga ega bo'lsa, foydalanilmay qolgan mablag'lar nima qilinadi?

Tadbirlarni o'tkazish muddati tugaganidan keyin o'n ish kuni ichida tegishli zaxira jamg'armasiga tiklanadi;

Tadbirlarni o'tkazish muddati tugaganidan keyin o'n ish kuni ichida tegishli byudjetga tiklanadi;

Tadbirlarni o'tkazish muddati tugaganidan keyin besh ish kuni ichida tegishli zaxira jamg'armasiga tiklanadi;

Tadbirlarni o'tkazish muddati tugaganidan keyin besh ish kuni ichida tegishli byudjetga tiklanadi

Agar sog'liqni saqlash muassasasi rahbari va uning yordamchilari tibbiyot va farmasevtika fanlari nomzodi bo'lsa, ularga qancha miqdorda qo'shimcha haq belgilanadi?

Eng kam ish haqining 45% miqdorida;

Eng kam ish haqining 100% miqdorida;

Eng kam ish haqining 70% miqdorida;

Eng kam ish haqining 50% miqdorida

Agar kelgusi moliya yili uchun Davlat byudjeti yil boshlangunga qadar qabul qilinmagan bo'lsa, u holda Davlat byudjeti qabul qilingunga qadar bo'lgan davrda davlat xarajatlari qanday shartlarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi, noto'g'ri javob?

Davlat byudjetidan mablag' ajratish davlat byudjeti qabul qilingunga qadar to'xtatib turiladi:

Avvalgi moliya yilida amalga bo'lgan soliq solish va majburiy to'lovlar to'lash tartibi davlat byudjeti qabul qilingunga qadar o'z kuchini yo'qotmaydi;

Byudjet mablag'larining avvalgi moliya yili so'nggi uch oyining uchdan bir qismidan ortiq bo'lmagan miqdorlarda har oyda amalga oshiriladi;

Avvalgi moliya yilida qilinmagan byudjet xarajatlari amalga oshirilmaydi

Agar byudjet tashkilotlarining kreditorlik qarzi, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalarini to'lash bo'yicha qarzi mavjud bo'lmasa, Byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armasidagi qolgan summalarining qancha qismi byudjet tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirishga yo'naltirilishi mumkin?

Ko'pi bilan 25 foizi:

Kamida 75 foizi;

Kamida 50 foizi;

Ko'pi bilan 15 foizi

2019-yil uchun yagona ijtimoiy to'lov miqdori mehnat haqi fondiga nisbatan necha foiz qilib belgilangan?

25/15 foiz:

24/14 foiz;

24,8/14,8 foiz;

25 foiz

"Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni, byudjet-soliq va pul-kredit parametrlarini shakllantirish jarayonlarini, ularning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligiga rioya etilishini tizimli o'rganish" qaysi davlat moliyaviy nazorati organi vakolatiga kiradi?

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi bo'linmalari;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;

Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotini to'lash xarajatlari xarajatlar smetasining qaysi guruhi bo'yicha rejalashtiriladi?

II-guruh bo'yicha:

I-guruh bo'yicha;

III-guruh bo'yicha;

IV-guruh bo'yicha

Davolash, bolalar muassasalari va boshqa ijtimoiy soha byudjet tashkilotlarida ovqatlanishga ketadigan xarajatlar qanday hisoblanadi?

Byudjet tashkilotlarining har bir turi uchun tasdiqlangan ovqatlanish kunining natural me'yorlaridan va o'rtacha yillik sonidan kelib chiqib:

Barcha byudjet tashkilotlari uchun tasdiqlangan ovqatlanish kunining yagona natural me'yorlaridan kelib chiqib;

Byudjet tashkilotlaridagi o'rin-kunlar sonidan va ovqatlanishning natural me'yorlaridan kelib chiqib;

Davolash, bolalar va boshqa ijtimoiy soha byudjet tashkilotlarida ovqatlanishga xarajatlar ko'zda tutilmaydi

Byudjet tashkilotlarida dori-darmonlarga ketadigan xarajatlar qanday belgilanadi?

Kuniga bir bemorga hisoblangan dori-darmonlar me'yoriga qarab:

Iste'molchilarning pullik to'lovlari miqdorida;

Byudjet tashkilotlarining dori-darmonlarga ketgan avvalgi yillar haqiqiy xarajatlari asosida;

Kuniga byudjet tashkilotidagi bir o'ringa hisoblangan dori-darmonlar me'yoriga qarab

Ijtimoiy-madaniy tashkilotlarning ayrim guruhi uchun kiyim-kechak, poyabzal, choyshab, ko'rpa-to'shak anjomlari va boshqa yumshoq anjomlar sotib olishga ketadigan xarajatlar qanday hisoblanadi?

Mavjud moddiy ta'minotning me'yorlari asosida ajratilgan mablag'lar doirasida:

Byudjet tashkilotining avvalgi yillardagi shu maqsadlarga sarflangan haqiqiy xarajatlari doirasida;

Byudjet tashkilotining shu maqsaddagi xarajatlarga bo'lgan haqiqiy ehtiyojini hisoblab chiqish asosida;

Mavjud moddiy ta'minotning me'yorlariga qat'iy rioya qilgan holda

Vaqtinchalik xarajatlar smetalari qachongacha amalda bo'ladi?

Xarajatlar smetasi ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar:

Kelgusi yilning 10 martiga qadar;

Smetaga kiritiladigan o'zgarishlar kiritilgunga qadar;

Kelgusi yilning 10 mayiga qadar

Byudjet tashkilotlarining qaysi byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha daromad va xarajatlar smetasi tuzilishi talab etilmaydi?

Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarni saqlab turilganligi uchun ota-onalardan undiriladigan to'lovlar:

Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi;

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari;

Byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimiga belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi, vaqtinchalik xarajatlar smetasi ko'rsatkichlarini kiritish kim tomonidan amalga oshiriladi?

Moliya vazirligining sohalarni moliyalashtiruvchi tegishli boshqarmalari, moliya boshqarmalarining tegishli bo'limlari, tuman va shahar moliya bo'limlari tomonidan

Moliya vazirligining Axborot-tahlil boshqarmasi tomonidan;

Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning tegishli boshqarmalari va tuman, shahar bo'limlari tomonidan;

Moliya vazirligi G'aznachiligining Axborot-tahlil boshqarmasi tomonidan

Byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq byudjet tashkilotining va byudjet mablag'lari oluvchining so'roviga ko'ra xarajatlar smetasiga o'zgartirishlar:

Yilda ko'pi bilan 4 marta kiritiladi:

Yilda kamida 2 marta kiritiladi;

Yilda ko'pi bilan 2 marta kiritiladi;

Yilda ko'pi bilan 3 marta kiritiladi

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar yuridik majburiyatlar yuzaga kelishini tasdiqlovchi hujjatlarni g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazish uchun qaysi muddatda taqdim etadi?

Joriy moliya yilining 25 dekabridan kechiktirmay;

Joriy moliya yilining 30 dekabridan kechiktirmay;

Kelgusi moliya yilining 10 yanvaridan kechiktirmay;

Kelgusi moliya yilining 10 martidan kechiktirmay

Moliyaviy majburiyatlar qaysi organ tomonidan qabul qilinadi hamda ro'yxatdan o'tkaziladi?

Tegishli g'aznachilik bo'linmalari tomonidan;

Moliya vazirligi G'aznachiligi tomonidan;

Byudjet tashkilotiga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan;

G'aznachilikka xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan

Moliyaviy majburiyatlar nima asosida g'aznachilik bo'linmalari tomonidan qabul qilinadi hamda ro'yxatdan o'tkaziladi?

Hisobvara-q-fakturalar hamda moliyaviy majburiyatlar mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida;

Byudjet tashkilotining mol yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari va to'lovlar jadvali asosida;

Byudjet tashkilotining xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalining ro'yxatdan o'tkazilganligi asosida;

Byudjet tashkilotining xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali asosida

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni qanday muddatda taqdim etadi?

Hisobot yilidan keyingi yilning 1-apreligacha.

Hisobot yilidan keyingi yilning 10-martigacha;

Hisobot yilidan keyingi yilning 1-fevraligacha;

Hisobot yilidan keyingi yilning 15-apreligacha

"Boshlang'ich hisob hujjatlarining mavjud emasligi, byudjet hisobi va moliyaviy hisobot ma'lumotlarining boshlang'ich hisob hujjatlarining ma'lumotlariga nomuvofiqligi, byudjet hisobi va moliyaviy hisobotlarda operatsiyalar va mol-mulkning to'liq aks ettirilmaganligi" – nima?

Byudjet hisobi va moliyaviy hisobotni yuritish tartibini buzish:

Byudjet intizomini buzish;

Smeta-shtat intizomini buzish;

Moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibini buzish

Byudjet loyihasini ishlab chiqishga quyidagilar asos qilib olinadi:

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi, davlat byudjeti daromadlari prognozi, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy byudjetlari loyihalari, Vazirlar mahkamasining tegishli qarorlari, Prezident farmonlari; Moliya vazirligi va boshqa mutasaddi davlat idoralarining byudjet loyihasi bo'yicha hisob-kitoblari; Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobot, joriy yilda davlat byudjetining kutilayotgan ijrosi, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlarining bajarilishi

Erishilgan natijalar hisobga olingan holda mamlakatni kelgusi davr uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini nazarda tutadigan hujjat -

Byudjetnoma:

Davlat byudjeti loyihasi;

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari va byudjet parametrlari;

Davlat byudjeti to'g'risidagi Oliy Majlis qarori

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Byudjetnomani qaysi muddatda taqdim etadi?

15-sentyabrgacha;

1-oktyabrdan kechiktirmay;

20-sentyabrgacha;

15-oktyabrdan kechiktirmay

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasiga Byudjetnomani qaysi muddatdataqdim etadi?

20-sentyabrgacha;

15-sentyabrgacha;

1-oktyabrdan kechiktirmay;

15-oktyabrdan kechiktirmay

O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi unga taqdim etilgan Byudjet loyihasi bo'yicha xulosani qanday muddatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi?

2 haftalik muddatda;

1 haftalik muddatda;

15-oktyabrdan kechiktirmay;

20-sentyabrgacha

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Byudjetnomani qaysi muddatda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga taqdim etadi?

15-oktyabrdan kechiktirmay;

1-oktyabrdan kechiktirmay;

15-sentyabrgacha;

20-sentyabrgacha

Oliy Majlis palatalarining navbatdagi yilga mo'ljallangan Davlat byudjeti to'g'risidagi qarorlarini ijro etish uchun ...

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilinadi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilinadi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilinadi;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyrug'i qabul qilinadi

Byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga qanday muddatda taqdim etadi?

10-martgacha;

1-aprelgacha;

5-aprelgacha;

10-maygacha

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Hisob palatasiga Byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni taqdim etadi -

Tashqi audit o'tkazish va baholash uchun;

Rasmiy web-saytiga joylashtirish uchun;

Ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga taqdim etish uchun

Byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Hisob palatasiga qanday muddatda taqdim etadi?

5-aprelgacha;
1-aprelgacha;
10-martgacha;
10-maygacha

Hisob palatasi byudjetijrosi yuzasidan yillik hisobotga doir o'z xulosasini kimga taqdim etadi?

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga,
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga;
O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga;
O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga

Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotning tasdiqlanishi...

Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi qarori bilan tasdiqlanadi;
Oliy Majlis Senati qarori bilan tasdiqlanadi;
Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senati qo'shma qarori bilan tasdiqlanadi;
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan tasdiqlanadi

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom – Adliya vazirligida ro'yxatga olingan raqami?

2634-sonli;
2146-sonli;
2157-sonli;
2007-sonli

Byudjet tashkilotlari xodimlari lavozim okladlarini aniqlash uchun qo'llaniladigan hujjat...

Yagona tarif setkasi,
Tarmoq tarif setkasi;
Byudjet tashkilotlarining namunaviy shtatlari;
Shtatlar ro'yxati

Byudjet tashkilotlarida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotini to'lash xarajatlari qanday aniqlanadi?

Barcha xodimlarning o'tgan yilgi ish haqining haqiqiy xarajatlaridan kelib chiqqan holda:

Yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha o'rnatilgan foizlarda;
I-guruh xarajatlari bo'yicha hisoblangan ish haqi summasiga nisbatan o'rnatilgan foizlarda;
Barcha xodimlarning rejalashtirilayotgan yilgi ish haqi xarajatlaridan kelib chiqqan holda

Byudjet tashkilotlari smetalarining tasdiqlangan byudjetga va qonunchilikka mos tuzilganligini tekshiradi ...

Moliya vazirligi va tegishli hududiy moliya organlari;
Moliya vazirligi G'aznachiligi va tegishli hududiy G'aznachilik organlari;
Byudjet tashkilotlarining yuqori turuvchi organlari va tegishli vazirliklarning reja-moliya bo'limlari;
Moliya vazirligi

Davlat byudjetidan ta'limga ajratilgan xarajatlarning YaIM dagi ulushi ...

7,2-6,6 foiz;
10-12 foiz;
30-34 foiz;
59-60 foiz;

Davlat byudjetidan ta'limga ajratilgan xarajatlarning davlat byudjeti jami xarajatlari tarkibidagi ulushi -...

30-27 foiz;
7,2-6,6 foiz;
10-12 foiz;
59-60 foiz

Maktabgacha ta'lim muassasalarining moliyaviy resurslari manbalari:

Byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy to'lovlari va maqsadli badallari, boshqa manbalar:

Davlat byudjeti, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy to'lovlari va maqsadli badallari;

Byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar, qonun bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar;

Davlat byudjeti, ota-onalarning ovqatlanish uchun majburiy to'lovlari

Umumta'lim muassasalarida o'quvchi soniga nisbatan o'rnatiladigan xarajat me'yorlariga ko'ra moliyalashtirish tizimi qachondan boshlab va qaysi hududlarda joriy etildi?

2008-yil, Buxoro, Farg'ona viloyati, Toshkent shahri:

2009-yil, Buxoro, Farg'ona, Namangan, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari, Toshkent shahri;

2010-yil, 2008 yil, Buxoro, Farg'ona viloyati, Toshkent shahri;

2008-yil, Buxoro, Farg'ona, Toshkent viloyati, Toshkent shahri

Bir talaba soniga nisbatan bazaviy xarajat me'yorlariga ko'ra davlat oliy ta'lim muassasasi byudjetini aniqlash usuli qachondan boshlab joriy etildi?

2010-yil:

2009-yil;

2008-yil;

2011-yil

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi 1,5 stavkada ishlasa, uning o'quv va pedagogik yuklama miqdori qancha bo'ladi?

27/27:

18/20;

27/54;

30/24

Yuqori sinf o'qituvchisi 1,5 stavkada ishlasa, uning o'quv va pedagogik yuklama miqdori qancha bo'ladi?

30/24:

30/30;

30/48;

27/27

Xalq ta'limi xodimlari malaka toifalari:

Toifasiz xodim; mutaxassis; ikkinchi toifali mutaxassis; birinchi toifali mutaxassis; oliy toifali mutaxassis

Ikkinchi toifali mutaxassis; birinchi toifali mutaxassis; oliy toifali mutaxassis;

Mutaxassis; ikkinchi toifali mutaxassis; birinchi toifali mutaxassis; oliy toifali mutaxassis;

Toifasiz xodim; mutaxassis; ikkinchi toifali mutaxassis; birinchi toifali mutaxassis

Umumta'lim maktablarida daftar va yozma ishlarni tekshirganlik uchun doimiy ustama qaysi o'qituvchilarga beriladi?

Ona tili, matematika, rus tili, xorijiy tillar o'qituvchilariga, boshlang'ich sinfda dars beruvchi asosiy o'qituvchiga:

Ona tili, matematika, rus tili, ximiya, fizika o'qituvchilariga;

Boshlang'ich sinfda dars beruvchi asosiy o'qituvchiga, yuqori sinfda dars beruvchi barcha o'qituvchilarga;

Yuqori sinflarda dars beruvchi barcha o'qituvchilarga

Umumta'lim maktablarida o'qituvchining tarif stavkasiga doimiy ustamalarga qaysilar kiradi?

Sinf rahbarligi uchun, daftar va yozma ishlarni tekshirganlik uchun:

Tarbiyaviy ishlar va sinfdan tashqari ishlarni olib borishning yuksak darajasi uchun;

Kasbiy mahorati va ta'lim jarayoniga qo'shgan aniq hissa, yuqori samaradorlik va o'qitish sifati uchun;

Sinf rahbarligi uchun, fan kabinetiga mudirligi uchun

Davlat byudjetidan sog'liqni saqlash tizimiga ajratilgan xarajatlarning davlat byudjeti jami xarajatlari tarkibidagi ulushi ...

13-14 foiz:

8-10 foiz;

24-25 foiz;

7-8 foiz

Markaziy va mahalliy byudjetlar avtonom (mustaqil) bo'lib, ularning har biri o'z xarajatlarini to'liq qoplay oladigan daromad manbalariga ega bo'ladigan byudjet qurilishi modeli -

Nomarkazlashgan model:

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan model;

Markazlashgan model;

Rejali model

Markaziy byudjet barcha mahalliy byudjetlar uchun (daromadlilik darajasini) tartibga soluvchi vazifani bajaradigan xususiyat byudjet qurilishining qanday modeliga xos?

Markazlashgan model:

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan model;

Rejali model;

Nomarkazlashgan model

Har bir yuqori turuvchi byudjet quyi byudjetlarning daromadlilik darajasini tartibga solish vazifasini bajargani holda, har bir mahalliy byudjetning ham o'z xarajatlarini qoplashga mo'ljallangan o'z daromad manbalari mavjud bo'ladigan xususiyat byudjet qurilishining qanday modeliga xos?

Aralash model:

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan model;

Markazlashgan model;

Nomarkazlashgan model

Barcha darajadagi byudjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari yig'indisini, byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va tashkil etish printsiplarini, ular o'rtasida byudjet jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi -

Byudjet tizimi:

Byudjet jarayoni;

Byudjet qurilishi;

Byudjetlararo munosabatlar tamoyillari

Respublika byudjetidan viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga, davlat maqsadli jamg'armalariga hamda buning aksicha o'tkaziladigan mablag'lar -

Byudjetlararo transfertlar:

Byudjet subvensiyalari;

Byudjet dotatsiyalari;

Byudjetlararo munosabatlar

Byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag' jalb qilish va byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi -

“Byudjet Kodeksi”

Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senatining muayyan yil uchun “Davlat byudjeti to'g'risida”gi tegishli qarorlari;

“Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi Prezident qarori;

==== Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabr 414-son qarori

Byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlari, shuningdek Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalarini guruhlash -

Byudjet tasnifi:

Byudjetni konsolidatsiyalash;

Davlat byudjeti loyihasi;

Barcha darajadagi byudjetlarni jamlash

Daromadlar tasnifining tuzilmasi -

Byudjet tizimi byudjetlarining manbalari va darajalari tasnifi, daromadlarning turlari tasnifi, tashkiliy tasnif, hududiy tasnif

Mablag'larning manbalari tasnifi, tashkiliy tasnif, hududiy tasnif;

Byudjet tizimi byudjetlarining manbalari va darajalari tasnifi, tashkiliy tasnif, hududiy tasnif, funksional tasnif;

Daromadlarning turlari tasnifi, tashkiliy tasnif, hududiy tasnif, funksional tasnif

Xarajatlar tasnifi tuzilmasining tarkibi:

Byudjet tizimi byudjetlari mablag'larning manbalari va darajalari tasnifi, vazifa jihatdan tasnif, tashkiliy tasnif, iqtisodiy tasnif, hududiy tasnif;

Vazifa jihatdan tasnif, tashkiliy tasnif, iqtisodiy tasnif, hududiy tasnif;

Byudjet tizimi byudjetlari mablag'larning manbalari va darajalari tasnifi, tashkiliy tasnif, iqtisodiy tasnif, hududiy tasnif, moliyaviy tasnif

Byudjet tizimi byudjetlari mablag'larning manbalari va darajalari tasnifi, vazifa jihatdan tasnif, iqtisodiy tasnif, hududiy tasnif, idoraviy tasnif

Moliya vaziri:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan, Prezident tomonidan tayinlanadi va Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi va raisi tomonidan tasdiqlanadi;

Vazirlar Mahkamasi tomonidan tavsiya etiladi va Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi;
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi va Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi

Moliya vazirining o'rinbosarlari:

Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi;

Moliya vaziri tomonidan tayinlanadi;

Prezident tomonidan tavsiya etiladi, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi;

Moliya vazirining tavsiyasi bilan Prezident tomonidan tayinlanadi

Moliya vazirligining asosiy vazifalari va funksiyalari qaysi hujjat bilan belgilab qo'yilgan?

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.03.2017-yildagi "Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 2847 -sonli Qarori bilan:

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi bilan;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.02.2007.dagi 594-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi to'g'risidagi Nizom" bilan;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 23-noyabrda 553-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi to'g'risidagi Nizom" bilan

Soliq Kodeksi bilan belgilangan soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan soliqlar:

Yagona soliq to'lovi, yagona yer solig'i, qat'iy belgilangan soliq;

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;

Mol-mulk solig'i, yagona soliq to'lovi, yagona yer solig'i;

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliq

Umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi:

Yagona soliq to'lovi, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq;

Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar, benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moli uchun soliq;

Mol-mulk solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

Jismoniy shaxslar daromadiga soliq, yagona yer solig'i

YaIMning qayta taqsimlanishi natijasida davlat byudjetida jamlangan pul mablag'larining maqsadga muvofiq qayta taqsimlanishi va ishlatilishi bilan bog'liq byudjet qonunchiligi bilan tartibga solinadigan pul munosabatlari yig'indisi -

Davlat byudjeti xarajatlari:

Davlat byudjeti daromadlari;

Iqtisodiy kategoriya sifatida davlat byudjeti;

Yuridik kategoriya sifatida davlat byudjeti

O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining xarajatlari Byudjet Kodeksining qaysi moddasida belgilab qo'yilgan?

70-moddasida:

71-moddasida;

72-moddasida;

73-moddasida

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining xarajatlari Byudjet Kodeksining qaysi moddasida belgilab qo'yilgan?

71-moddasida:

70-moddasida;

72-moddasida;

73-moddasida

Tumanlar va shaharlar byudjetlarining xarajatlari Byudjet Kodeksining qaysi moddasida belgilab qo'yilgan?

72-moddasida:

71-moddasida;

70-moddasida;

73-moddasida

Suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi suv xo'jaligi tashkilotlari tomonidan iste'mol qilinadigan elektr energiyasi to'lovlari davlat byudjeti xarajatlarining qaysi xarajatlari guruhiga kiradi?

Iqtisodiyot xarajatlari:

Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;

Davlat boshqaruvi xarajatlari;

Ijtimoiy soha xarajatlari

Aholi punktlarini obodonlashtirish xarajatlari davlat byudjeti xarajatlarining qaysi xarajatlari guruhiga kiradi?

Iqtisodiyot xarajatlari:

Ijtimoiy soha xarajatlari;

Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari

Nogironlarni ortopediya-protez buyumlar va harakatlanish vositalari bilan ta'minlash xarajatlari davlat byudjeti xarajatlarining qaysi xarajatlari guruhiga kiradi?

Ijtimoiy ta'minot xarajatlari:

Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

Ijtimoiy sohalarni saqlash xarajatlari;

Jismoniy tarbiya va sport xarajatlari

Uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish xarajatlari davlat byudjeti xarajatlarining qaysi xarajatlari guruhiga kiradi?

Ijtimoiy ta'minot xarajatlari:

Ijtimoiy sohalarni saqlash xarajatlari;

Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

Sog'liqni saqlash xarajatlari

YuNESKOning tavsiyalariga ko'ra, mamlakatni barqaror rivojlantirishni ta'minlash uchun ta'limga yo'naltirilishi zarur bo'lgan investitsiyalar miqdori qancha bo'lishi kerak?

YaIMning 6-7 foizi.

Davlat byudjetining 35-40 foizi;

Davlat byudjetining 15-20 foizi;

YaIMning 10-12 foizi

Yuqori sinf o'qituvchisining 1,0 stavkasi uchun haftalik pedagogik yuklamasi -

16 soat;

20 soat;

18 soat;

36 soat

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining 1,0 stavkasi uchun haftalik pedagogik yuklamasi -

18 soat;

20 soat;

16 soat;

36 soat